



The problem of communication gaps in the translation process

Nargiza DOSBAEVA¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 March 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
15 May 2025

Keywords:

lacuna,
alternative,
transformation,
approach,
worldview,
recipient,
source language,
target language,
neologism,
elimination,
untranslatability.

ABSTRACT

The purpose of this article is to compare approaches to the study of lacunae from the point of view of cultural studies and translation studies, as well as to generalize the findings. Based on the analysis, an attempt was made to determine the status of the concept of "lacuna" in the scientific apparatus of translation theory, for which the views of a number of translation scholars on this concept were considered.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp92-98>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarjima jarayonidagi muloqot boshliqlari muammosi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

lakuna,
muqobillik,
transformatsiya,
yondashuv,
olam manzarasi,
retsipiyent,
asliyat tili,
tarjima tili,
neologizm,
eliminatsiya,
tarjimasizlik.

Ushbu maqolada lakunalar tadqiqiga oid kulturologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashuvlarni taqqoslash hamda olingan xulosalarni umumlashtirish maqsadi qo'yilgan. O'tkazilgan tahlil asosida "lakuna" tushunchasining tarjima nazariyasi ilmiy apparatidagi maqomini belgilashga harakat qilingan va shu maqsadda qator tarjimashunoslarning ushbu tushunchaga doir qarashlari ko'rib chiqilgan.

¹ Professor, Namangan State Institute of Foreign Languages. E-mail: nargizad2008@gmail.com

Проблема коммуникационных пробелов в процессе перевода

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

лакуна,
альтернатива,
трансформация,
подход,
мировоззрение,
реципиент,
исходный язык,
переводной язык,
неологизм,
устранение,
непереводимость.

Целью данной статьи является сравнение подходов к изучению лакун с точки зрения культурологии и переводоведения, а также обобщение полученных выводов. На основе проведенного анализа предпринята попытка определить статус понятия «лакуна» в научном аппарате теории перевода, для чего рассмотрены взгляды ряда ученых-переводоведов на данное понятие.

KIRISH

Ma'lumki, "lakuna" tushunchasi lingvomadaniyatshunoslikda yetarlicha e'tibor qaratilayotgan konsept bo'lib, u masala sifatida nafaqat ushbu ilm va u bilan bog'liq qator fanlar uchun, balki tarjimashunoslik uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimashunoslikdagi "lakunarlik" muammosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirilsa, shunga amin bo'lamizki, garchi "ekvivalentlilik", "muqobillik" tushunchalari asosida bir talay tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilgan bo'lsa-da, aynan "lakuna" tushunchasining o'zini amalda keng qo'llash borasida deyarli aniq bir to'xtamga kelinmaganining guvohi bo'lamiz. Demoqchimizki, lakuna terminini aynan qaysi holat uchun qanday ishlatish va uning qamroviga yana qaysi tushunchalarni kiritish hamda lakunani bartaraf qilish bo'yicha berilgan dastlabki va "xira" fikrlarni "tiniqlashtirib" yoki bir tartibga solib, tarjimashunoslikda ham lakunarlikka doir yagona konsepsiyani olg'a surish masalasi o'z yechimini kutmoqda. Ushbu maqolada lakunalar tadqiqiga doir kulturologik va tarjimashunoslikka oid yondashuvlarni taqqoslash va olingan xulosalarni umumlashtirish maqsadi qo'yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Lakuna termini va tushunchasi hozirgi kunda etnolingvistika va psixolingvistika, shuningdek, madaniyatshunoslik (madaniyatlar hamda madaniyat va tilning o'zaro aloqalarini o'rganadigan fanlar) doirasida izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchi uchun katta qiziqish uyg'otadi. Ilk bor "lakuna" terminini "Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy stilistikasi"ning mualliflari J.P. Vine va J. Darbelnelar ishlatgan bo'lib, "har gal asliyat tilidagi belgi uchun tarjima tilida odatiy muqobil topilmaganda, lakuna vujudga keladi, ya'ni, masalan, inglizcha "shallow" uchun fransuz tilida bir so'zning mavjud emasligi singari" deya eslatib o'tishgan [26]. Ushbu termin uchun boshqa ta'riflar ham bor. I.I. Revzin va V.Yu. Rozensveyglarning "'yaxshi" (to'g'ri ma'nosida) yoki "yomon" (noto'g'ri ma'nosida) ta'riflar bo'lmaydi, balki "qulay" va "noqulay" ta'riflar bor" [22], degan fikrlariga qo'shilib, biz ham lakunalar haqidagi maqolamizni boshlash uchun qulay bo'lgan ta'rifdan foydalanamiz: "Lakuna – bu lingvomadaniy hodisa bo'lib, istalgan shakldagi aloqa ishtirokchilari, xususan, madaniyatlararo aloqada turli xalqlar o'rtasidagi tushunish jarayonini ma'lum darajada qiyinlashtiradi. Madaniyat va tillar kodlaridagi ma'lum joylar to'liq qoplanmaganda, bir madaniyat tilidan ikkinchi madaniyat tiliga belgini transfer qilishning imkoni bo'lmaganda, yoki qisman bo'lmaganda, aniqrog'i, qabul qiluvchi tilning

dekodlash mexanizmi jo'natilayotgan tilning belgisini identifikatsiya qiluvchi semantik vositalarga ega bo'lmagan vaqtda lakunalar paydo bo'ladi" [6]. Shuningdek, "so'zning, so'z ma'nosi komponentining, so'z yoki grammatik shaklning ishlatilish takroriyligining, biror-bir konseptning mavjud emasligi" [26] ham lakuna bo'lishi mumkin. Tor ma'noda aytilganda esa, lakuna bir tilda mavjud leksik birlikning ikkinchi tilda yo'qligini bildiradi [26]. Psixolingvistlar Yu.A. Sorokin va I.Yu. Markovinalarning nazariyalariga ko'ra "lakunalar lingvomadaniy jamoa tajribasining to'liq emasligi yoki aksincha, keragidan ortiqligi tufayli vujudga keladi" [19]. Etnopsixolingvistika va madaniyatshunoslik bo'yicha yozilgan ko'plab ishlarda lakunalar masalasi ko'rib chiqilgan, ularning turli tasniflari hamda eliminatsiya (o'rnini qoplash, to'ldirish) usullari keltiriladi. Lakunalar so'z, grammatik tuzilish, vaziyat va xattoki madaniyat darajasida o'rganiladi. Izlanishlar natijasi o'laroq, "Lakunologiya" deb atalmish alohida fan ham dunyoga keldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda tavsifiy, qiyosiy-chogishtirma, conceptual, contextual, cross-madaniy tahlil usullaridan foidalanildi. Lakunalar tillarning milliy-madaniy o'ziga hosligdan darak beradi va bu o'ziga hoslik ma'lum halqning turmush sharoiti, dunyoqarashining o'zgachaligi, psixologiyasi, an'analari tufayli vujudga kelgan obraz va tushunchalarning boshqa tillarda mavjud emasligi bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Lakuna nazariyasi va tarjimashunoslik o'rtasidagi bog'liqlik haqida qator dissertatsiyalar yozilgan [6; 19; 26]. Lakunalar va ularning eliminatsiyasi muammosi psixolingvistika nazariyasida katta qiziqish uyg'otib kelgan. Mantiqan olganda, tarjimashunoslik bilan chambarchas bog'liq fanlarda (makrolingvistika, shu jumladan, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika) dolzarb bo'lgan lakunarlik masalasi, tabiiyki, tarjimashunos olimlarning jarayonini ma'lum darajada qiyinlashtiradi. Madaniyat va tillar kodlaridagi ma'lum joylar to'liq qoplanmaganda, bir madaniyat tilidan ikkinchi madaniyat tiliga belgini transfer qilishning imkoni bo'lmaganda, yoki qisman bo'lmaganda, aniqrog'i, qabul qiluvchi tilning dekodlash mexanizmi jo'natilayotgan tilning belgisini identifikatsiya qiluvchi semantik vositalarga ega bo'lmagan vaqtda lakunalar paydo bo'ladi" [6]. Shuningdek, "so'zning, so'z ma'nosi komponentining, so'z yoki grammatik shaklning ishlatilish takroriyligining, biror-bir konseptning mavjud emasligi" [26] ham lakuna bo'lishi mumkin. Tor ma'noda aytilganda esa, lakuna bir tilda mavjud leksik birlikning ikkinchi tilda yo'qligini bildiradi [26]. Psixolingvistlar Yu.A. Sorokin va I.Yu. Markovinalarning nazariyalariga ko'ra "lakunalar lingvomadaniy jamoa tajribasining to'liq emasligi yoki aksincha, keragidan ortiqligi tufayli vujudga keladi" [19]. Etnopsixolingvistika va madaniyatshunoslik bo'yicha yozilgan ko'plab ishlarda lakunalar masalasi ko'rib chiqilgan, ularning turli tasniflari hamda eliminatsiya (o'rnini qoplash, to'ldirish) usullari keltiriladi. Lakunalar so'z, grammatik tuzilish, vaziyat va xattoki madaniyat darajasida o'rganiladi. Izlanishlar natijasi o'laroq, "Lakunologiya" deb atalmish alohida fan ham dunyoga keldi.

Biz uchun dolzarb masala shundan iboratki, so'nggi vaqtlarda psixolingvist va madaniyatshunoslar ishlarida lakunologiya hamda tarjima o'rtasidagi bog'liqlilik nuqtasiga jiddiyroq yondashila boshlandi. O'z davrida mashhur psixolingvist Yu.A. Sorokin shunday yozib qoldirgan: "lakunologiya va tarjimashunoslikning o'zaro bir-birini to'ldirishini ta'kidlash ortiqchadir, ammo, shunga qaramay, aynan birinchisidan tarjimashunoslikdagi muammolarni yechishga maxsuldor turtki berishi kutiladi" [21].

Lakuna nazariyasi va tarjimashunoslik o'rtasidagi bog'liqlik haqida qator dissertatsiyalar yozilgan [6; 19; 26]. Lakunalar va ularning eliminatsiyasi muammosi psixolingvistika nazariyasida katta qiziqish uyg'otib kelgan. Mantiqan olganda, tarjimashunoslik bilan chambarchas bog'liq fanlarda (makrolingvistika, shu jumladan, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika) dolzarb bo'lgan lakunarlik masalasi, tabiiyki, tarjimashunos olimlarning ishlarida ham chuqur o'rganilgan bo'lishi kerak. Tarjimashunoslar turli tillar tomonidan borliqning turlicha talqin qilinishi, olam manzaralari to'g'risidagi masalalarni diqqat-e'tiborlaridan qochirishmagan, albatta, ammo, shunisi bizga qiziqki, ular bu jarayonda lakuna terminidan qay darajada foydalanishadi va uni qaysi holatlarda qanday nomlashadi? Buni tahlil qilib ko'ramiz. Lakunalar tavsifining bir tildagi ma'lum bo'shliqlarning boshqa tilga qiyoslagan holatda tavsif qilish ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, biz tahlil davomida asosan ekvivalentlilik (ekvivalentsizlilik) hamda tarjimalilik (tarjimasizlik) masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ekvivalentlilik – tarjimaning asosiy tushunchasidir. Tarjimadagi ekvivalentlilik “ma'nolar o'xshashligi orqali kelib chiqadigan tenglikdir. U aniq-tiniq bo'lmasligi ham mumkin” [10]. V.N. Komissarov asliyat tilidagi hamda tarjima tilidagi ekvivalentsizlilik to'g'risida quyidagilarni yozadi: “tarjimalarning qiyosiy tahlilida shu narsa ma'lum bo'ladiki, tarjima tilida o'zining bitta yoki ko'plab muqobillariga ega asliyat tilidagi til birliklari qatorida shunday leksik va grammatik birliklar borki, tarjima tilida ularga to'g'ridan to'g'ri muqobil bo'la oladigan birliklar yo'qdir” [12]. Xuddi shu masala madaniyatshunoslik aspektida ham yoritiladi: “Umumiy ma'noda, tarjimadagi butun jarayon lakunalarni, ya'ni o'zaro munosabatga kirishgan tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlar tufayli vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf qilishdan iborat” [24].

Matnlar ekvivalentlilikini ta'minlash maqsadida tarjimashunoslikda bu turdagi to'siqlarni bartaraf qilish usullari, xususan, tarjima transformatsiyalari ishlab chiqilgan. Madaniyatshunoslikda transformatsiyalar lakunalarni to'ldirish vositalari sifatida xarakterlangan. Shunday qilib, madaniyatshunoslar tomonidan lakunalar leksik ekvivalentsizlilik, ya'ni ayrim leksik birliklar uchun tarjima tilida to'g'ridan to'g'ri muqobilning yo'qligi bilan bog'lanadi. Ye.M. Vereshagin va V.G. Kostomarovlar ekvivalentsiz leksikani quyidagicha izohlashadi: “O'zga madaniyat yoki tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlar. Faqat A madaniyatga xos bo'lib, B madaniyatda yo'q bo'lgan madaniy unsurlar, shuningdek, bir so'z bilan boshqa tilga tarjima qilina olmaydigan, o'zi tegishli bo'lgan tildan tashqarida muqobilga ega bo'lmagan so'zlar” [2]. Ushbu ta'rifni madaniyatshunos V.L. Muravevning fikri bilan solishtirib ko'ramiz: “Agar ularning boshqa tildagi muqobillari bir so'z yordamida berila olmay, faqatgina so'z birikmalari vositasida berila olsa lakunalar mutlaq hisoblanadi” [24].

Bundan kelib chiqadiki, ekvivalentsiz leksika va lakunalar bir narsa ekan-da? Ayrim tadqiqotchilar bu fikrga qo'shilmaydilar. “Agar bir tilning leksik birligini boshqa tildagi muqim so'z birikma bilan ifodalay olinsa ushbu birlik lakuna deb hisoblay olinmaydi. Masalan, essential (birinchi navbatdagi muhim narsa), rejectee (xarbiy xizmatga yaroqsiz), designation (lavozimga tayinlash) kabi so'zlar ingliz tili fonida rus tili uchun lakunalar hisoblanmaydi, chunki rus tilida tegishli ma'no muqim so'z birikmalari bilan ifodalangan” [18.46]. Keltirilgan misollardan shunday xulosa qilish mumkinki, lakunalarning ekvivalentsiz leksika bilan o'zaro nisbati to'g'risidagi masala ochiq qolgan.

Tarjimada qiynchiliklar keltirib chiqaruvchi yana bir turkum so'zlar – realiyalarga to'xtalamiz. Bir xalqda mavjud bo'lib boshqasida bo'lmagan, moddiy va ma'naviy madaniyat obyektlarini, turmush hodisalarini ifodalovchi ushbu birliklar lakunalar

deyiladimi? V.D. Kalininaning darsligiga murojaat qilamiz: “Ko‘pchilik tushunchalar turli verbal shaklga kirgan bo‘lsa-da, umumbashariy hisoblanadi. Biroq realiyalar aks ettiradigan tushunchalar milliy xarakterga egadir va ular muqobilsiz leksikada ko‘rinadi” [10]. Shu o‘rinda S.I. Vloxov hamda S.P. Florinlar ekvivalentsiz leksika, ekzotik leksika, ekzotizmlar, varvarizmlar, lokalizmlar, etnografizmlar, bo‘shliqlar va nol muqobilga ega so‘zlar singari terminlar qatorida “realiya” terminiga bog‘liqlikda lakunalarga to‘xtalib o‘tadilar [3]. Mualliflar ushbu terminlarni milliy, tarixiy, maxalliy bo‘yoqdorlik, tarjima tilida muqobillarning mavjud emasligi singari omillar birlashtirib turishini ta’kidlashadi. O‘z asarlarida ushbu tadqiqotchilar realiya terminiga aniqlik kiritish uchun yuqoridagi terminlarni tahlil qilib chiqishadi hamda realiyaga bog‘liq bo‘lmagan terminlar qatoriga “bo‘shliq” terminini ham kiritishadi: “... tabiiyki, tarjima nuqtayi nazaridan olib qaraganda, “bo‘shliq” va “neologizm” “realiya”ning na sinonimi va na alomatlari bo‘la oladi” [3]. Shunday qilib, “Tarjimadagi tarjima qilinmaydiganlar” kitobida lakunalar realiyalardan ajratib qo‘yilgan.

Lakunalar haqida yozgan sanoqli tarjimashunoslardan biri V.G. Gak ularni quyidagicha ta’riflaydi: “Lakunalar – tilning leksik tizimidagi tushirib qoldirilgan joylar, mavjud bo‘lmagan so‘zlardir. Aslida tilning aks ettira olish funksiyasi va tegishli tilning leksik tizimidan kelib chiqilsa, bu so‘zlar tilda mavjud bo‘lishi kerakdek” [5].

N.I. Dzens va hammualliflarining tarjima bo‘yicha kitobidagi ekvivalentsiz tushunchalarni berilishiga doir bobida “lakuna” termini ishlatiladi. Muqobilsiz birliklar turlari haqida yozilar ekan, ushbu qo‘llanmada tasodifiy muqobilsiz leksika sifatida leksik lakunalar eslatib o‘tiladi (realiyalar – mutlaq; terminlar va ilmiy neologizmlar – vaqtinchalik; “tarjimonning soxta do‘stlari” deb ataluvchi ma’noda qisman mos keluvchi – qisman). Tasodifiy muqobilsizlar, ya’ni lakunalar – “asliyat tili yurtida mavjud bo‘lganidek, tarjima tili yurtida ham mavjud narsa va hodisalarni belgilovchi, lekin qaysidir sabablarga ko‘ra tillarning birida o‘ziga xos atamaga ega bo‘lmagan ifodalardir” [7]. Xuddi shu punktda rus tilidagi “sutki” so‘zi misol keltirilib, nemis tilida uning “24 soat”, “kun va tun” shaklida berilganligi aytiladi. G.V. Chernov va L.S. Barxudarovlarning muqobilsiz birliklar tasnifini o‘rganilar ekan, kitobda yana “lakuna” termini ishlatiladi: “tasodifiy lakunalar deb atalishi mumkin bo‘lgan leksik birliklar, ya’ni tillardan birining lug‘aviy tarkibida mavjud bo‘lgan va qaysidir sabablarga ko‘ra boshqa tilning lug‘aviy tarkibida o‘zining muqobillariga ega bo‘lmagan birliklar” [7].

Tarjima bo‘yicha boshqa ko‘plab ishlarda lakunalar haqida deyarli so‘z yuritilmaydi. Lakuna tushunchasini namoyon qilish uchun xizmat qilishi mumkin bo‘lgan misollar esa yetarlicha keltiriladi. Masalan, ishlarning birida “qo‘l” so‘ziga ingliz tilidagi ikkita muqobil – hand va arm to‘g‘ri kelishi aytib o‘tilgan. Tarjima jarayonida tanlov muammosiga duch kelinadi. “U qo‘lidan jaroxat oldi” misolida qay biri ishlatilgani ma’qul, hand mi yoki arm mi? “Ushbu vaziyatda, tilda bir obyektning turli qismlarini ifodalash uchun ikki so‘zning mavjudligi ingliz tilida gapiruvchilarning rus tilida gapiruvchilarga nisbatan ajratib turadigan o‘ziga xos fikrlash tarzi borligidan darak beradi” [20]. Bizningcha, ushbu tavofut lakunarlilik doirasida ham o‘rganilishi mumkin edi.

Tillararo lakunalarga kulturologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashuvlardagi farqlar haqida fikr yuritir ekan, D.I. Yermolovich “madaniyatshunoslikda tillararo lakunarlilik ekvivalentsizlilikka tenglashtirilishini, lakuna va ekvivalentsiz leksika esa deyarli sinonimlar sifatida ishlatilishi”ni aytib o‘tadi [8.55]. Demakki, madaniyatshunoslar ekvivalentsizlilik hamda lakunarlilik o‘rtasida farqlanish ko‘rishmaydi. Ular lakunarlilikni juda keng olib, ushbu tushunchani “retsipiyent uchun tushunarsizlilik, noodatiylik,

begonalilik, notanishlilik” sifatida izohlashadi. Biroq, tarjima nazariyasi uchun bunday keng qarash mos kelmaydi, chunki tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan lakunalar faqatgina leksik birliklarning qiyosiy tahlili hodisasi sifatida ko‘rib chiqiladi [8].

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil natijasida shuning guvohi bo‘lamizki, “lakuna” tushunchasi hozircha tarjima nazariyasining ilmiy apparatida noaniq maqomga ega bo‘lib turibdi. Qator mualliflar tomonidan muvaffaqiyatli ishlatilgan “lakuna” termini yagona talqinga ega emas. Tarjimada lakunarlilik muammolari bo‘yicha bir nechta maqolalar va dissertatsiyalar yozilgan, ammo ushbu termin va tushunchaga tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yanada aniqroq yondashuvni ishlab chiqish masalasi dolzarbliligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Междунар. отношения, 1975. – С.235.
2. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. – Язык и культура – М., 1973. – С.269.
3. Влахов С. И., Флорин С. П. Непереводимое в переводе. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Р.Валент, 2006. – С.446.
4. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – М., 1997. – С.331.
5. Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков: учеб. для студ. пед. ин-тов по спец. <<Иностр. яз.>>. – 3-е изд., дораб. – М.: Просвещение, 1989. – С.288.
6. Глазачева Н. Л. Модель лакунизации как составляющая теории перевода (на примере русского и китайского языков: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2006. – С.208.
7. Дзенс _ _е_аН. И., Перевышина И. Р., Кошкарров В. А. Теория и практика перевода: учеб. пособие. – СПб.: Антология, 2007. – С.559.
8. Ермолович Д. И. Наш перевод, вперед лети! В лакуне остановка // Мосты. – № 1(23). – М.: Р.Валент, 2009. – С. 48–67.
9. Иванов А. О. Безэквивалентное и непереваемое в переводе в свете современной лингвистической теории: дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1984. – С.190.
10. Калинина В. Д. Теория и практика перевода. Курс лекций: учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – С.178.
11. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода – М.: Международные отношения, 1980. – С.166.
12. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С.250.
13. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода – проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых: учеб. пособие. – М.: ЧеРо, 1999. – С.132.
14. Комиссаров В. Н. Лингвистическое переводоведение в России: учеб. пособие. – М.: ЭТС, 2002. – С.184.
15. Комиссаров В. Н. Теоретические основы методики обучения переводу. – М.: Рема, 1997. – С.110.
16. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение: учеб. пособие. – М.: ЭТС, 2001. – С.424.
17. Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Культура и текст. Введение в лакунологию: учеб. пособие. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. – С.144.

18. Махонина А. А., Стернина М. А. Опыт типологии межъязыковых лакун // Лакуны в языке и речи: сб. науч. тр. / под ред. проф. Ю. А. Сорокина, проф. Г. В. Быковой. – Вып. 2. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2005. – С. 45–55.
19. Проскурин Е. Г. Когнитивная лакунарность текста как проблема межкультурной коммуникации: дис. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С.146.
20. Сдобников В. В., Петрова О. В. Теория перевода: учебник для студ. лингвист. вузов и фак-тов ин. яз. – М.: АСТ: Восток–Запад, 2007. – С.444.
21. Сорокин Ю. А. Лакуны: еще один ракурс рассмотрения // Лакуны в языке и речи: сб. науч. тр. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 3–11.
22. Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. – М.: Высшая школа, 1964. – С.243.
23. Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода / доп. и ком. Д. И. Ермолович. – М.: Р.Валент, 2006. – С.237.
24. Федоров А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): учеб. пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшая школа, 1983. –С.303.
25. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – С.215.
26. Vinay, Jean-Paul and Jean Darbelnet Comparative Stylistics of French and English, a Methodology for Translation, translated and edited by Juan C. Sager and M.-J. Hamel, Benjamins Translation Library, vol. 11, Amsterdam/Philadelphia, 1995: John Benjamins, XX + P.358.
27. Досбаева, Н. Т. (2010). Воссоздание художественного стиля при непосредственном переводе. *Вестник Челябинского государственного университета*, (21), 19-22.
28. Turgunpolatovna, D. N. (2020). The linguocultural analysis of literary translation from Uzbek into English. *Journal of critical reviews*, 7(3), 262-265.
29. Dosbaeva, N. (2019). ABOUT HARMONY OF LINGUISTIC AND CULTURAL APPROACHES IN TRANSLATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(1), 152-156.
30. ДОСБАЕВА, Н. Т., & ДОСБАЕВА, Н. Т. (2020). ТАРЖИМАЛАР ТАҲЛИЛИДА ҚОДИРИЙ “АНДИША” ЛАРИ.
31. Досбаева, Н. Т. (2018). ВОПРОСЫ СОХРАНЕНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА В ПЕРЕВОДЕ. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 159-161).
32. Досбаева, Н. Т. (2017). TEACHING TO DEVELOP THE READING MICRO SKILLS. *Научное знание современности*, (3), 98-101.
33. Досбаева, Н. Т. (2017). SPECIAL NOTES ON TEACHING VOCABULARY. *Научное знание современности*, (4), 94-97.
34. Досбаева, Н. Т. (2016). Learning the image system. *Молодой ученый*, (3), 812-814.
35. Dosbaeva, N. T. (2019). THE LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF LITERARY TRANSLATION FROM UZBEK INTO ENGLISH (BY THE EXAMPLE OF THE SHORT STORY “THE POMEGRANATE” BY ABDULLA KAHHOR). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 157-162.
36. Nargiza, D., & Palina, B. (2019). Features of the english translation of Russian-Speaking realities in the texts of fiction novels. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(4), 117-121.